QARSHI DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI
KARSHI STATE TECHNICAL UNIVERSITY

INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 3

@QMI_Instituti

Qarshi shahri,
Mustaqillik ko‘chasi 225 - uy

www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical Journal

ojs.qmii.uz

O'zbekiston respublikasi soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning ayrim jihatlari ... 101
Djalilov Rahmonkul Hamidovich, Alimova Komila
Elektron tijoratni soliqqa tortish va davlat tomonidan tartibga solish masalalari tahlili ... 106
Mahmudov Lazizbek
O'zbekiston respublikasida qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish muammolari ... 118
Djalilov Rahmonkul Hamidovich, Alimova Komila
Ona tili ta'limini tashkil etish jarayonining retrospektiv tahlili ... 123
Uzoqova Maftuna Abdirazzoqovna
Sog'liqni saqlashda rentgenologik tekshiruvlarning iqtisodiy tahlili:
davlat xarajatlari va bemor yuki o'rtasidagi muvozanat ... 126
Xamidov Obid Abdurahmonovich, Umarov Farrux Umarovich

Moliya, kredit va investitsiya ... 133
Тижорат банклар корхоналарининг замонавий ривожланиш таҳлили ... 134
Каримова Азиза Махомадризоевна, Хурсанова Фарида Эркиновна
Moliyaviy hisobda biologik aktivlarni baholash masalalari ... 140
Ravshanov Alisher Bobaqulovich
Qishloq xo'jaligini innovasion-investitsion rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari tahlili ... 147
Xatamova Manzura Ochildiyevna

Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi ... 153
Autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning metodologik yechimlarini takomillashtirish ... 154
Navruz-Zoda Baxtiyor Negmatovich, Ergasheva Nasiba Rahmatullayevna
Umumiy ovqatlanish xizmatlari bozorini barqaror rivojlantirishning xususiyatlari va elementlari ... 160
Raximova Dilorom Sulaymonovna

Moliya, kredit va investitsiya

Innovatsion iqtisodiyot / Инновационная экономика / The innovation economy
UDC 657.01

Moliyaviy hisobda biologik aktivlarni baholash masalalari

Ravshanov Alisher Bobaqulovich

Вопросы оценки биологических активов в финансовом учете

Равшанов Алишер Бабакулович

Questions of assessment of biological assets in financial accounting

Ravshanov Alisher Babakulovich

Received: June 6, 2025 **Revised:** June 8, 2025 ■ **Accepted:** June 20, 2025 ■ **Published Online:** June 30, 2025

- **Annotatsiya:** Moliyaviy hisob amaliyotida “biologik aktivlar” moliyaviy hisob va hisobotning muhim ob’ekti sifatida tan olinadi. Biologik aktivlar hisobini to‘g‘ri tashkil etish moliyaviy hisobotning sifat ko‘rsatkichlarini yanada oshiradi. Maqolada mualif tomonidan biologik aktivlarni hisobda aks ettirishning milliy standartlarga asoslangan holati va xalqaro standartlar bo‘yicha aks ettirish muammolar hamda uning echimlari keltirib o‘tilgan.
- **Kalit so‘zlar:** hisob siyosati, ishchi hayvonlar, mahsuldor hayvonlar, o‘stirishdagi hayvonlar, boquvdagi hayvonlar, ko‘p yillik daraxtlar, daraxt ko‘chatlari, nihollar, baholash, boshlang‘ich qiymat, tannarxi, eskirish qiymati, haqqoniy qiymat, asosiy bozor, afzal bozor.
- **Аннотация:** В практике финансового учета «биологические активы» признаются важным объектом финансового учета и отчетности. Правильная организация учета биологических активов еще больше повышает качественные показатели финансовой отчетности. В статье представлен авторский анализ современного состояния учета биологических активов на основе национальных стандартов и проблем учета биологических активов на основе международных стандартов, а также пути их решения.
- **Ключевые слова:** учетная политика, рабочие животные, продуктивные животные, сельскохозяйственные животные, домашний скот, многолетние деревья, саженсы деревьев, рассада, осенка, первоначальная стоимость, себестоимость, амортизатсия, справедливая стоимость, первичный рынок, привилегированный рынок.
- **Abstract:** In the practice of financial accounting, “biological assets” are recognized as an important object of financial accounting and reporting. Correct organization of accounting of biological assets further improves the quality indicators of financial reporting. The article presents the author’s analysis of the current state of accounting of biological assets based on national standards and problems of accounting of biological assets based on international standards, as well as ways to solve them.
- **Key words:** accounting policy, working animals, productive animals, farm animals, livestock, perennial trees, tree seedlings, seedlings, valuation, historical cost, cost price, depreciation, fair value, primary market, preferred market.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonlarining jadallashib borayotganligi milliy buxgalteriya hisobi tizimini bevosita moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o‘tishini va ularga amal qilish zaruriyatini taqazo qilmoqda. Ushbu zaruriyatlarni hisobga olgan holda mamlakatimizda buxgalteriya hisobining me’yoriy huquqiy asoslari xalqaro standartlar talabi asosida qaytadan ishlab chiqilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4611-son Qarorida “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta’minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar, 2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashi, buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga muvofiq uyg‘unlashtirish masalalari belgilab berilgan[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi 11.09.2023 yildagi PF-158-son Farmoni loyihasida 2030 yilda aholi jon boshiga YaIM ikki baravarga oshirish, iqtisodiy o‘sish sur’atlari o‘rtacha yillik 6,4 foiz, kapital qo‘yilmalar 9,9 foiz, eksport 9,6 foizni tashkil etishi hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini 1,8 martaga oshirish, shuningdek, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni standartlashtirishni amalga oshirish va milliy standartlarni xalqaro standartlarga moslashtirish ko‘zda tutilgan[2].

Bu maqsad va vazifalarni bajarishda biologik aktivlar va ulardan olinadigan mahsulotlar hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish ham muhim vazifalardan biridir.

Qishloq xo‘jaligi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning agrar sektoriga xorijiy sarmoyalarni jalb etish, sohaning raqobatbardoshligini oshirish, mamlakatda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish imkonini beradi.

Buxgalteriya hisobi hisob ma’lumotlaridan foydalanuvchilarga iqtisodiy qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish uchun taqdim etiladigan ma’lumotlar sifatiga javobgardir. Unda aks ettirilgan ma’lumotlar ma’lum foydali va sifat xususiyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Mahsuldor va ishchi hayvonlari to‘g‘risidagi milliy buxgalteriya hisobi ma’lumotlari yuqorida ko‘rsatilgan umumiy qabul qilingan buxgalteriya tamoyillariga to‘liq mos kelmaydi, deb hisoblaymiz.

Bunga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin: umumiy tushunchalarning va qo‘llaniladigan terminologiyalarning yo‘qligi (biologik aktivlar, biotransformasiya, adolatli qiymat va boshqalar), umumiy qabul qilinganlardan farq qiluvchi baholash usullaridan foydalanish (hayvonlarni tannarx bo‘yicha baholash), buning natijasida moliyaviy natijalarning nomuvofiqligi, shu jumladan ularni taqqoslashning mumkin emasligi va boshqalar.

Hozirgi kunda mavjud bo‘lgan buxgalteriya hisobi tizimi biologik aktivlar to‘g‘risida foydali va sifatli ma’lumotlar olish imkonini bermaydi. Bu esa ilimiy mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biologik aktivlarni hisobga olish muammolari har doim iqtisodchi olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ushbu muammoning ko‘p jihatlari xorijiy iqtisodchi-olimlari tomonidan, ya’ni V.Bukur, V.M.Vitalevna, A.A. Dodonov, N.N. Bondina, I.A. Bondin, E.I. Martemyanova, T.V. Zubkova[3,8] va mamlakatimiz iqtisodchi-olimlaridan K.B.Urazov, S.V.Vaxidov, R. Dusmuratov, S.N. Tashnazarov[9,11] va boshqalar katta hissa qo‘shganlar. Lekin mazkur ishlarda biologik aktivlarning hozirgi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishi sharoitidagi hisobini yuritilishi masalalarini va bozor mexanizmi sharoitlariga mos keladigan xo‘jalik boshqaruvini sifatli axborot bilan ta’minlash imkonini beruvchi tashkiliy-uslubiy vazifalarni kam rivojlanganligi, soha buxgalteriya hisobining mavjud muammmolari va ularni hal qilishdagi milliy buxgalteriya hisobi oldidagi masalalarning etarlicha tadqiq etilmaganligi, mazkur mavzuning tadqiq ob’ekti sifatida o‘rganilishiga sabab bo‘ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida biologik aktivlar va ulardan olinadigan mahsulotlar hisobining metodologiyasini o‘rganish maqsadida ilmiy tadqiqot faoliyati olib borishning iqtisodiy-statistik, analiz va sintez, taqqoslash kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga muvofiq modernizatsiya qilish uning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar buxgalteriya hisob tizimida belgilangan tamoyillar va qoidalarga uyg‘un holda rivojlantirishni nazarda tutadi.

Qishloq xo‘jaligida moliyaviy hisobotning xalqaro

standartlardan foydalangan holda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash korxonalarning investitsion jozibadorligini oshiradi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini jahon bozoriga kirishi, xorijiy investorlarni moliyaviy axborotlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda ko‘pgina yirik qishloq xo‘jaligi korxonalari jumladan qishloq xo‘jalik klasterlari moliyaviy hisobotni MHXSga muvofiq tayyorlamoqda. Bu holat mavjud qishloq xo‘jalik korxonalardan samarali foydalanish masalalari Respublikamizda ham katta ahamiyat kasb eta boshlaganidan dalolat beradi.

MHXSni qo‘llashning korxona faoliyatidagi ijobiy tomonlarini hisobga olgan holda shuni ta’kidlash kerakki, Xalqaro standartlarda qo‘llaniladigan buxgalteriya hisobi usullariga o‘tish davrida, ularni birinchi marta qo‘llashda qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Masalan, korxonaning uzoq muddatli biologik aktivlarini adolatli qiymatda baholash kerak bo‘ladi. Uzoq muddatli biologik aktivlarini shakllantirish (sotib olish, transport tayyorlov xarajatlari, ularni biotransformatsiyasi jarayoniga ta’sir ko‘rsatish, saqlash, mahsulotni yig‘ib olish) katta miqdordagi pul xarajatlarini talab qiladi.

Shuni ham hisobga olish kerakki, moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayonida faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda muayyan tuzatishlar kiritilishi kerak.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining mavsumiyligi va tabiiy iqlim sharoitiga bog‘liqligi, bozordagi talabning iqlim sharoitiga bog‘liq holda o‘zgarib turishi natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga narx belgilashning o‘ziga xosligi bilan bog‘liq. Mahsulot narxlari nisbatan qisqa vaqt ichida sezilarli darajada o‘zgarishi mumkin. Bu esa aktivning yillik moliyaviy ko‘rsatkichlarga rejalashtirilmagan holda ta’sir qiladi.

Bugungi kunda Respublikamizning ko‘pchilik qishloq xo‘jalik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olish 1-“Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”, 4-“Tovar-moddiy zaxiralari”, 5-“Asosiy vositalar” va 20-sonli “Kichik tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibi”, 21-“Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” milliy standartlari bilan tartibga solinadi.

Milliy standartda bilogik aktivlar: ishchi va mahsuldor hayvonlar hamda ko‘p yillik o‘simliklar asosiy vositalar sifatida hisobga olinadi. Xuddi shuningdek, o‘stirishdagi hayvonlar va bo‘rdoqidagi hayvonlar joriy aktivlar (ishlab chiqarish zaxiralari) sifatida, xo‘jalikda etishtiriladigan ko‘chatlar va daraxt nihollari esa ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida hisobga olinadi.

Respublikamizda ishlab chiqarish xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.02.1999 yildagi 54-son qarori bilan

tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida” [12] gi Nizom bilan tartibga solinadi.

Biologik aktivlarni moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari asosida hisobga olishda 41-sonli “Qishloq xo‘jaligi” standarti asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu standart faqatgina yig‘im jarayonidagi qishloq xo‘jaligi hosiliga, qaysiki tadbirkorlik sub’ektining biologik aktivlarining yig‘ishtirilgan mahsulotiga, nisbatan qo‘llaniladi. Bundan so‘ng, BHXS 2-“Tovar-moddiy zaxiralar”, MHXS 13-“Haqqoniy qiymatni baholash” yoki boshqa tegishli standart qo‘llaniladi.

5-sonli “Asosiy vositalar” deb nomlanuvchi BHMSga asosan “Asosiy vositalar - korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo‘jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar” deb ta’riflangan. Xuddi shuningdek, 21-sonli “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi”ga asosan ishchi va mahsuldor hayvonlar hamda ko‘p yillik o‘simliklar uzoq muddatli aktivlar sifatida asosiy vositalar tarkibida qayd etilgan.

Ishchi va mahsuldor hayvonlar hamda ko‘p yillik o‘simliklar tarkibiga quyidagi mezonlarga bir vaqtning o‘zida javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi:

a) bir yildan ortiq xizmat muddati;

b) bir birlik (to‘plam) uchun qiymati O‘zbekiston Respublikasida (xarid paytida) belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan ortiq bo‘lgan moddiy qiymatliklar.

Korxona rahbari hisobot yilida moddiy qiymatliklarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini belgilash huquqiga ega.

Ko‘p yillik ko‘chatlarga, ishchi va mahsuldor hayvonlarga kapital qo‘yilmalar har yili butun ishlar majmui yakunlangan sanadan qat’iy nazar, hisobot yilida foydalanishga qabul qilingan ishchi va mahsuldor hayvonlar hamda ko‘p yillik o’simliklarga tegishli xarajatlar summasida asosiy vositalar tarkibiga kiritiladi[13].

Ishchi va mahsuldor hayvonlar hamda ko‘p yillik o‘simliklar korxona balansiga boshlang‘ich qiymati bo‘yicha kiritilishi lozim va u xarid qilish qiymati (etkazib beruvchiga to‘langan summa) hamda ularni xarid qilish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni o‘z ichiga oladi.

Ishchi va mahsuldor hayvonlar hamda ko‘p yillik o‘simliklarni xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- ro‘yxatga olish yig‘imlari, davlat bojlari va ularga bo‘lgan huquqni xarid qilish (olish) bo‘yicha amalga oshirilgan boshqa shunga o‘xshash to‘lovlar;
- bojxona bojlari va yig‘imlari;
- ishchi va mahsuldor hayvonlar hamda ko‘p yillik o‘simliklarni xarid qilish munosabati bilan soliqlar va yig‘imlar summalari (agar ular qoplanmasa);
- ishchi va mahsuldor hayvonlar hamda ko‘p yillik o‘simliklarni xarid qilish (barpo etish) bilan bog‘liq axborot va maslahat xizmatlari uchun to‘lanadigan summalar;
- ishchi va mahsuldor hayvonlar hamda ko‘p yillik o‘simliklarni etkazib berish (barpo qilish) xatarini sug‘urtalash bo‘yicha xarajatlar;
- ishchi va mahsuldor hayvonlar hamda ko‘p yillik o‘simliklarni vositachilar orqali olinganda ularga to‘lanadigan mukofotlar;
- aktivdan maqsadga muvofiq foydalanish uchun uni ishchi, foydalanish holatga keltirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni to‘lashga doir xarajatlar qarz kapitali hisobidan to‘liq yoki qisman sotib olingan ishchi va mahsuldor hayvonlar hamda ko‘p yillik o‘simliklarning boshlang‘ich qiymatiga kiritilmaydi.

Agar shartnoma shartlarida xarid qilingan ishchi va mahsuldor hayvonlar hamda ko‘p yillik o‘simliklar haqini kechiktirib yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash nazarda tutilgan bo‘lsa, unda mazkur asosiy vositalar buxgalteriya hisobiga kechiktirib yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashni hisobga olmagan holdagi sotib olish qiymati bo‘yicha qabul qilinadi. Bunda sotib olish qiymati va to‘lovning umumiy summasi o‘rtasida yuzaga keladigan farq kechiktirib yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash davri davomida joriy to‘lovning kechiktirib yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash bo‘yicha to‘lovlarning umumiy summasidagi solishtirma og‘irligiga bog‘liq holda moliyaviy xarajatlarga (foizlar bo‘yicha xarajatlarga) olib boriladi.

Misol uchun, chorvachilik fermer xo‘jaligi shartnoma asosida 20 bosh nasldor qoramolni chet eldan xarid qildi. Qoramollarning shartnoma bahosi QQS bilan birga 224 000 000 so‘m (QQS stavkasi-12%). Sotib olish uchun brokerlik firmasiga to‘langan xizmat haqi 400 000 so‘mni, davlat boji to‘lovi 200 000 so‘mni, bojxona boj 100 000 so‘mni, tayyorlov-transport xarajatlari 38 400 000 so‘mni, firma ta’minotchisiga to‘lanadigan xizmat safari xarajarlari 10 240 000 so‘mni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan muomalalarga 5-sonli va 21-sonli BHMSlari hamda qoramollarni sotib olishga doir xarajatlarga ularni tasdiqlovchi hujjatlarga asosan quyidagicha buxgalteriya o‘tkazmalari beriladi:

Qoramollarning shartnoma bahosi QQS bilan birga 224 000 000 so‘m.

Qoramollarni QQS solig‘isiz sof bahosi 200 000 000 so‘m (224 000 000 x100% / 112%).

1. Bojxona yuk dekloratsiyasi (schyot-faktura) va “Nasldor qoramollarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi”ga asosan qoramollarning shartnoma bahosi summasiga:

D-t 0840-«Asosiy podani shakllantirish» 200 000 000 so‘m,

K-t 6010 «Ta’minotchi va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar»

200 000 000 so‘m.

2. Bojxona yuk dekloratsiyasi (schyot-faktura)ga asosan sotib olingan qoramollarning shartnoma bahosi tarkibidagi QQS summasiga:

D-t 4410-“Byudjetga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)” 24 000 000 so‘m,

K-t 6010 «Ta’minotchi va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar»

24 000 000 so‘m.

3. Shartnomaga asosan brokerlik firmasiga hisoblangan xizmat haqi summasiga:

D-t 0840-«Asosiy podani shakllantirish» 400 000 so‘m,

K-t 6911-«Boshqa majburiyatlar (Brokerlik xizmati)» 400 000 so‘m.

4. Hisoblangan Davlat boji summasiga:

D-t 0840-«Asosiy podani shakllantirish» 200 000 so‘m,

K-t 6912-«Boshqa majburiyatlar (Davlat boji)» 200 000 so‘m.

5. Bojxona yuk dekloratsiyasiga asosan hisoblangan bojxona boji summasiga:

D-t 0840-«Asosiy podani shakllantirish» 100 000 so‘m,

K-t 6912-«Boshqa majburiyatlar (Bojxona boji)» 100 000 so‘m.

6. Shartnomaga asosan tayyorlov-transport xarajatlari uchun avtotransport korxonasiga hisoblangan xizmat haqi summasiga:

D-t 0840-«Asosiy podani shakllantirish» 38 400 000 so‘m,

K-t 6010 «Ta’minotchi va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar»

38 400 000 so‘m.

7. Avans hisobotiga asosan firma ta’minotchisiga hisoblangan xizmat safari xarajarlari summasiga:

D-t 0840-«Asosiy podani shakllantirish» 10 240 000 so‘m,

K-t 4220-«Xizmat safarlariga berilgan bo‘naklar» 10 240 000 so‘m.

20 bosh nasldor qoramolni fermer xo‘jaligi balansiga kirim qilinishiga “Nasldor qoramolni boshlang‘ich qiymatini aniqlash hisob-kitobi” tuzilib unga asosan qoramollarni boshlang‘ich qiymati summasiga quyidagicha buxgalteriya o‘tkazmalari beriladi:

D-t 0170 «Mahsuldor hayvonlari» 249 340 000 so‘m,

K-t 0840-«Asosiy podani shakllantirish» 249 340 000 so‘m.

Bu holatda bir bosh qoramolning dastlabki qiymati 12 467 000 so‘m (249 340 000 : 20 bosh)ni tashkil etadi.

41-sonli BHXS “Qishloq xo‘jaligi”ga asosan, biologik aktiv dastlabki tan olinishida va har bir hisobot davrining oxirida sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymatda baholanishi lozim.

Biroq, ushbu faraz faqatgina shunday biologik aktivni dastlabki tan olinishida inkor etilishi mumkinki, bunda bunday biologik aktiv uchun belgilangan bozor narxlari mavjud bo‘lmaydi yoki haqqoniy qiymatning muqobil baholashlari aniq ishonchsiz deb aniqlangan bo‘ladi. Bunday holatda, biologik aktiv jamg‘arilgan eskirish va jamg‘arilgan qadrsizlanishdan zararlar chegirib tashlangandagi tannarxda baholanishi lozim. Qachonki bunday biologik aktivning haqqoniy qiymatini ishonchli baholash imkoni bo‘lganda, tadbirkorlik sub’ekti uni sotish xarajatlari chegirib tashlangandagi haqqoniy qiymatda baholashi lozim[14].

13-sonli MHXS “Haqqoniy qiymatni baholash”ga asosan, haqqoniy qiymat tadbirkorlik sub’ektiga-xos baholash emas, balki bozorga-asoslangan baholashdir. Ayrim aktivlar va majburiyatlar uchun, kuzatiladigan bozor operatsiyalari va bozor ma’lumotlari mavjud bo‘lmasligi mumkin. Biroq, haqqoniy qiymatni baholashning maqsadi ikki holatda ham bir xildir – joriy bozor sharoitlariga asosan baholash sanasida bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi aktivni sotish yoki majburiyatni o‘tkazish bo‘yicha odatiy operatsiyada sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan narxni baholashdir.

Haqqoniy qiymatni baholashda shunday faraz qilinadiki, aktivni sotish yoki majburiyatni o‘tkazish bo‘yicha operatsiya quyidagi bozorlardan birida sodir bo‘ladi:

- aktiv yoki majburiyat bo‘yicha asosiy bozorda;
- asosiy bozor mavjud bo‘lmaganda, aktiv yoki majburiyat bo‘yicha eng afzal bozorda[15].

Takidlanganidek, biologik aktivlarni haqqoniy qiymat tadbirkorlik sub’ektiga-xos baholash emas, balki bozorga-asoslangan baholashdir. Shunday ekan, xalqaro standartlarga ko‘ra bioligik aktivlar balansga asosan haqqoniy qiymatida baholanib kirim qilinadi. Bu esa bilogik aktivlar uchun asosiy bozor mavjud bo‘lganda yoki ular uchun afzal bozorlar mavjud bo‘lganda yuzaga keladi.

Qashqadaryo viloyatida zotdor qoramollarning asosiy bozori Qarshi “Karvon mol bozori” hisoblanib, bugungi kunda xo‘jaliklar tomonidan sotiladigan qoramollarning asosiy qismi xo‘jaliklar tomonidan induvidal holatda tuzilgan shartnoma asosida kelishilgan baholarda yoki mavjud Dehqon bozorlari tarikibidagi “Qoramollar va chorva mollari” bozorida sotilmoqda. Bu holatlar biologik aktivlar hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tishga to‘sqinlik qiladi.

Shu sababli ham 41-sonli “Qishloq xo‘jaligi” BHXS talablarini milliy hisob standarlarimizga moslashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar, birinchi navbatda, biologik aktivlarning adolatli qiymatini aniqlash tamoyillariga asoslanishi kerak. Ya’ni, quyidagi tamoyillarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- qo‘yilgan talablarga javob beradigan faol bozorning mavjudligi;
- monopolistik bozor segmentlarining yo‘qligini va ishlab chiqaruvchidan bozorga olib boradigan yo‘lda ko‘plab vositachilarni yo‘q qilishni nazarda tutuvchi narxlarning ob’ektivligi va ishonchliligi;
- O‘zbekiston faol bozorlarida narxlar to‘g‘risida ishonchli va foydalanish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etadigan axborot tizimini yaratishni talab qiladigan narxlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning mavjudligi;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining xususiyatlari va texnologiyalarini hisobga olgan holda, biologik aktivlarni va ularning biotransformatsiyasi natijalarini taqqoslash imkonini beruvchi ishonchli ma’lumotnoma va rejalashtirish-iqtisodiy ma’lumotlarning mavjudligi;
- adolatli qiymatni hisoblash algoritmi va usullarining soddaligi, ishonchli va qulay ma’lumotlardan foydalangan holda eng oddiy algoritmlar va uslubiy yondashuvlar bilan buxgalterlarning amaliy ishini ta’minlash;
- qishloq xo‘jaligi tashkilotlari buxgalterlarining yuqori kasbiy darajasi, joriy etilgan yangi tasnifdagi biologik aktivlar, ularning alohida turlari bo‘yicha biologik aktivlarning mavjudligi, harakati va biotransformatsiyasi to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlarni aks ettiruvchi alohida inventar hisoblarda ularning sintetik va analitik hisobini tegishli tarzda tashkil etishni nazarda tutadi;
- qishloq xo‘jalik korxonasi faoliyat turidan kelib chiqqan holda hisob vazifalarga qarab biologik aktivlarni hisobga olish va ularning biotransformatsiyasi natijalarini adolatli qiymat bo‘yicha hisobga olish siyosatini tanlash.

Bizningcha, Respublikamizda biologik aktivlarning adolatli qiymatda baholash va bahoning haqoniyligini ta'minlash uchun monopolistik bozor segmentlariga ega bo'lmagan faol bozor, qoramollar auksion savdosi faoliyatini tashkil etish zarur bo'ladi.
Faol bozor - bu quyidagi shartlar bajarilishi taminlanadigan bozordir:
- bozorda sotiladigan tovarlar bir xillikka ega;
- bitim tuzishga tayyor bo'lgan sotuvchi va xaridorni hohlagan vaqtda topish mumkin;
- baholar to'g'risidagi malumotlarni qiyinchiliksiz topish mumkinligi.
41-sonli "Qishloq xo'jaligi" BHXSga asosan, biologik aktiv dastlabki tan olinishida va har bir hisobot davrining oxirida sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymatda baholanishi lozim ekanligi takidlangan.
13-sonli MHXS "Haqqoniy qiymatni baholash"ga asosan, haqqoniy qiymat tadbirkorlik sub'ektiga-xos baholash emas, balki bozorga-asoslangan baholash bo'lganligi sababli, bu bahoni faol bozor belgilab beradi.
Yuqorida takidlangan misolni, 41-sonli "Qishloq xo'jaligi" BHXSga asosan hisobga oladigan bo'lsak va agarda faol bozorda nasldor qoramolining haqqoniy qiymati bir boshi uchun 11 200 000 so'mni tashkil etgan bo'lsa, u hola nasldor qoramollarning kirimi bo'yicha quyidagi buxgalteriya yozuvlari beriladi:
1. 20 bosh nasldor qoramolni fermer xo'jaligi balansiga kirim qilinishiga "Nasldor qoramolni haqqoniy qiymatini aniqlash hisob-kitobi" tuzilib unga asosan qoramollarni adolatli qiymati 224 000 000 so'mga (20 bosh x 11 200 000 so'm) quyidagicha buxgalteriya o'tkazmalari beriladi:
D-t 0170 «Mahsuldor hayvonlari» 224 000 000 so'm,
K-t 0840-«Asosiy podani shakllantirish» 224 000 000 so'm.
2. Biologik aktivlarni xarid qilish va u bilan bog'liq barcha xarajatlar summasi bilan ularni haqqoniy qiymati o'rtasidagi farq 25 340 000 so'mga (249 340 000 – 224 000 000):
D-t 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» 25 340 000 so'm,
K-t 0840-«Asosiy podani shakllantirish» 25 340 000 so'm.
21-sonli "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" BHMSda uzoq muddatli biologik aktivlarni hisobga olish uchun "Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar" tarkibida 0170-"Ishchi va mahsuldor hayvonlar", 0180-"Ko'p yillik o'simliklar", 0270-"Ishchi hayvonlarning eskirishi", 0280-"Ko'p yillik o'simliklarning eskirishi" schyotlari, joriy biologik aktivlarni hisobga olish uchun "Joriy aktivlar" tarkibida urug'lik va kuchatlarni hisobga olish uchun 1010-"Xom ashyo va materiallar", 1110-"O'stirishdagi hayvonlar", 1120-"Bo'rdoqidagi hayvonlar" schyotlari belgilab berilgan.
Bizning fikrimizcha, uzoq muddatli va qisqa muddatli bilogik aktivlar hisobga olish uchun 21-BHMS tizimidagi 0700-"O'rnatiladigan asbob-uskunalarni hisobga oluvchi schyotlar"ni 0170-"Ishchi va mahsuldor hayvonlar" schyotlar bilan o'rnini almashtirib, 0700-schyot nomini "Uzoq muddatli biologik aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar" deb nomlash, 1100-"O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schyotlar" deb nomlanuvchi schyotni esa 1100-"Joriy (qisqa muddatli) biologik aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar" deb qayta nomlanishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy hisob amaliyotida "biologik aktivlar" moliyaviy hisob va hisobotning muhim ob'ekti sifatida tan olinadi. Biologik aktivlar hisobini to'g'ri tashkil etish moliyaviy hisobotning sifat ko'rsatkichlarini yanada oshiradi. Moliyaviy hisobda biologik aktivlarni to'g'ri baholash va hisobga olinishini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar talablariga moslashtirish moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ishonchliligini yanada oshiradi.
Respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim o'rinni egallab, oxirgi yillarda bu sohaga ham xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilinishiga qaramasdan, ushbu aktivlarni hisobini yuritish, tan olish va baholash moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar talablariga mos keladi deb bo'lmaydi.
Buxgalteriya hisobining milliy standartlarida biologik aktivlarning hisobini yuritish asosiy vositalar va tayyor mahsulotlar sifatida 5-BHMS va 4-BHMSlar bilan tartibga solinadi.
O'rganishlar natijasiga ko'ra uzoq muddatlt bilogik aktivlar asosiy vositalarni hisobga oluvchi 0170-"Ishchi va mahsuldor hayvonlar", 0180- "Ko'p yillik o'simliklar" schyotlarda, qisqa muddatli bilogik aktivlar esa 1010-"Xom ashyo va materiallar", 1110-"O'stirishdagi hayvonlar", 1120-"Bo'rdoqidagi hayvonlar" va 2810-"Tayyor mahsulot" schyotlarida hisobga olinadi.
Biologik aktivlar ҳисобини to'g'ri tashkil etish ва молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари талабига мослаштириш maqsadida bajariladigan ishlar yuzasidan quyidagi takliflar tavsiya etiladi:
- bilogik aktivlarni haqqoniy (adolatli) qiymatda kirim qilinishini ta'minlash maqsadida Respublikamizda faol bozor - qoramollarning

auksion savdosi faoliyatini tashkil etish zarur:

- 0170-“Ishchi va mahsuldor hayvonlar”, 0180-“Ko‘p yillik o‘simliklar” счётларни 0700-счёт билан алмаштириб 0700-счётни “Uzoq muddatli biologik aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar” deb nomlash;

- 1100-“O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schyotlar” deb nomlanuvchi schyotni esa 1100-“Joriy (qisqa muddatli) biologik aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar” deb qayta nomlash.

-bilogik aktivlarni hisobini MHXSga yaqinlashtirish maqsadida amaliyotda ularni tan olish, baholash va hisobga olinishini tartibga soladigan BHMSni ishlab chiqish hamda hisobini takomillashtirish.

Biologik aktivlarga doir tushunchalarni to‘g‘ri talqin etish, ularni to‘g‘ri tasniflash moliyaviy hisobotning bilogik aktivlar to‘g‘risidagi ma’lumotlari ishonchliligi va sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Ravshanov Alisher Bobaqulovich QarDTU katta o‘qituvchisi / Равшанов Алишер Бобакулович, старший преподаватель КарГТУ / Ravshanov Alisher Bobakulovich, senior lecturer of KarSTU**

▸ alisherravshanov0571@gmail.com

▪ https://orcid.org/0009-0002-5204-2467

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son qarori.

[2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi 11.09.2023 yildagi PF-158-son Farmoni.

[3]. Букур, В. Учет биологических активов / В. Букур, Л. Тодорова. – Кишинев, 2008. – 254 с.

[4]. В.М.Виталевна развитие организационно-методического обеспечения управленческого учета биологических активов Автореферат диссертации д.э.н. Воронеж – 2022.

[5]. Додонов А.А. Амортизация и износ основных средств. - М.: изд-во 464 Buxgalteriya hisobi va audit www.infocom.uz “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali | 8-son Московского технологического института, 1994. – с. 168.

[6]. Н.Н. Бондина, И.А. Бондин, Э.И. Мартемянова, Т.В. Зубкова. Бухгалтерский учет в агропромышленном комплексе: учебник. М.: КНОРУС, 2016.

[7]. Н.Н. Бондина, И.А. Бондин, Э.И. Мартемянова, Т.В. Зубкова. Бухгалтерский учет в агропромышленном комплексе: учебник. М.: КНОРУС, 2016.

[8]. Зубкова Т. В., Бондина Н. Н., Бондин И.А. Бухгалтерский учет. Учебное пособие. М.: ЛАН 2023. 400 с. https://uz.ozon.com/person/zubkova-tatyana-viktorovna-136776596.

[9]. К.Б.Уразов, С.В.Вахидов. Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг

хусусиятлари. Дарслик, 2010 – 445 б.

[10]. Р. Дусмуратов Қишлоқ хўжалигида бухгалтерия ҳисоби ва статистика асослари. Дарслик. Т.: “Фан ва технология”. 2014.-392 б.

[11]. Tashnazarov. S.N.Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oliy o‘quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik.-Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019. – 584-b.

[12]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.02.1999 yildagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”. Lex.uz.

[13]. 5-sonli BHMS “Asosiy vositalar”. Lex.uz.

[14]. 41-somli “Qishloq xo‘jaligi”. Lex.uz.

[15]. 13-sonli “Haqqoniy qiymatni baholash”. Lex.uz.